



TOSHKENT VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI




Ma'lumki, uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadigan maktabgacha ta'lim bolalarning sog'lom o'sishi va tizimli o'qitishga tayyorlanishida muhim o'rin tutadi. 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Toshkent viloyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 688 tani tashkil etib, shundan 276 tasi shahar, 412 tasi qishloq joylarda joylashgan. Ularda tarbiyalanayotgan 77138 nafar bolalardan 53,7 foizini og'il bolalar, 46,3 foizini qizlar tashkil etadi



Maktabgacha ta'lim tashkilotlar soni (yil oxiriga, birlik)



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 2019- yilda 569 ta bo'lib, 2020-yilda 688 tani tashkil etdi va 20,9 %ga ko'paydi.




Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar soni (kishi) (yil oxiriga)




2021- yil 1- yanvar holatiga tarbiyalanuvchilar soni 77138 tani tashkil qilib, shundan 35693 tasi qiz bolalar, 41445 ta o'g'il bolalarni tashkil etadi.




Hududlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni, birlikda (yil oxiriga)



Hududlar kesimida Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar soni, ming kishi (yil oxiriga)



Maktabgacha ta'lim muassalaridagi mavjud o'rinlar soni (ming o'rin)



2020- yilda o'tgan yilga nisbatan o'rinlar soni shahar joylarda 33,1 %ga oshgan. Qishloq joylarda o'rinlar soni 30,8 %ga kamaygan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar yoshi bo'yicha taqsimoti kishi (yil oxiriga)




Jami	77138	4 yosh	19266
1 yosh	110	5 yosh	22414
2 yosh	342	6 yosh	20897
3 yosh	12534	7 yosh	1575




Toshkent viloyatida 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 1 yoshli bolalar soni 110 ta, 2 yoshli bolalar soni - 342 ta, 3 yoshli bolalar soni - 12534 ta, 4 yoshli bolalar soni - 19266 ta, 5 yoshli bolalar soni - 22414 ta, 6 yoshli bolalar soni - 20897 ta, 7 yoshli bolalar soni - 1575 tani tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarning ish staji to'g'risida ma'lumot, *kishi*



2021- yil 1- yanvar holatiga maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari soni jami 7694 ta, shundan 2933 ta xodim 5 yilgacha, 1608 ta xodim 5 dan 10 yilgacha, 1246 ta xodim 10 dan 15 yilgacha va 1907 ta pedagog xodim 15 yil va undan ortiq ish stajiga ega.

Hududlar kesimida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari soni kishi (yil oxiriga)



Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: (71) 202-86-80